



# URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UO'K:614.4616.831.9-002.155/.3

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MENINGOKOK INFEKSIYASI BILAN KASALLANISHNING EPIDEMIOLOGIK TAHLILI



**Tadjiyeva Nigora Ubaydullaevna**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti epidemiologiya kafedrası mudiri,  
tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent, O'zbekiston

n.tadjiyeva17091973@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-8739-6252>.

Tel: +998-90-355-5171



**Saidkasimova Nargiza Sayfullaevna**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Epidemiologiya kafedrası dotsenti,

PhD, Toshkent, O'zbekiston

e-mail: saidkosimova@inbox.ru

<https://orcid.org/0000-0003-3218-357X>

Tel: +998909290559

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida meningokokk infeksiyasi bilan kasallanishning retrospektiv epidemiologik tahlili o'tkazildi. Tadqiqot maqsadi kasallanishning ko'p yillik dinamikasini hamda hududlar bo'yicha tarqalish xususiyatlarini aniqlashdan iborat bo'ldi. Tahlil jarayonida respublika bo'yicha qayd etilgan meningokokk infeksiyasi holatlari bo'yicha statistik materiallar o'rganilib, kasallanish ko'rsatkichlarining vaqt davomidagi o'zgarishi baholandi. Hududiy tahlil natijalariga ko'ra, ayrim shahar va tumanlarda kasallanish darajasining nisbatan yuqoriligi kuzatildi, bu esa epidemiologik jarayonning hududiy notekis tarqalishini ko'rsatadi. Olingan natijalar meningokokk infeksiyasi bo'yicha epidemiologik vaziyatning dinamik xususiyatga ega ekanini va ayrim hududlarda kasallanishning yuqori saqlanib qolayotganini ko'rsatdi. Ushbu holat kasallikni barvaqt aniqlash va profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini anglatadi. Tadqiqot natijalari meningokokk infeksiyasining epidemiologik nazoratini takomillashtirish va maqsadli profilaktika strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** meningokokk infeksiyasi, bolalar, profilaktika.

## ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ МЕНИНГОКОККОВОЙ ИНФЕКЦИЕЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

**Таджиева Н.У., Саидкасимова Н.С.**

Ташкентский государственный медицинский университет, г. Ташкент, Узбекистан



# URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

**Аннотация.** В данном исследовании проведён ретроспективный эпидемиологический анализ заболеваемости менингококковой инфекцией в Республике Узбекистан. Целью исследования являлось изучение многолетней динамики заболеваемости, а также особенностей её территориального распределения. В ходе анализа были изучены статистические материалы по зарегистрированным случаям менингококковой инфекции в республике, а также оценены изменения показателей заболеваемости во времени. По результатам территориального анализа установлено, что в отдельных городах и районах наблюдается более высокий уровень заболеваемости, что свидетельствует о неравномерном распределении эпидемиологического процесса. Полученные результаты показали динамический характер эпидемиологической ситуации по менингококковой инфекции и сохраняющуюся высокую заболеваемость в отдельных регионах. Данное обстоятельство указывает на необходимость усиления профилактических мероприятий и раннего выявления заболевания. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования эпидемиологического надзора и разработки целевых профилактических стратегий в отношении менингококковой инфекции.

**Ключевые слова:** менингококковая инфекция, дети, профилактика.

## EPIDEMIOLOGICAL ANALYSIS OF THE INCIDENCE OF MENINGOCOCCAL INFECTION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

N.U. Tadjieva, N.S. Saidkasimova

Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan

**Abstract.** This study presents a retrospective epidemiological analysis of meningococcal infection incidence in the Republic of Uzbekistan. The aim of the study was to examine long-term trends in disease incidence as well as its patterns of geographical distribution. During the analysis, statistical data on reported cases of meningococcal infection across the country were reviewed, and temporal changes in incidence rates were assessed. The territorial analysis revealed a higher incidence in certain cities and districts, indicating an uneven distribution of the epidemiological process.

The obtained results demonstrate the dynamic nature of the epidemiological situation of meningococcal infection and the persistently elevated incidence in specific regions. This highlights the need to strengthen preventive measures and improve early detection of the disease. The findings are of practical importance for improving epidemiological surveillance and developing targeted preventive strategies for meningococcal infection.

**Keywords:** meningococcal infection, children, prevention

**Dolzarbliqi.** Meningokokk infeksiyasi bugungi kunda butun dunyo bo'ylab yuqori epidemiologik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb muammo hisoblanadi[2]. So'nggi yillarda meningokokk infeksiyasining seroguruh tarkibida o'zgarishlar kuzatilib, bu holat kasallanish darajasining ortishi bilan bog'liq ekani ta'kidlanadi. Neisseria meningitidisning W, Y va boshqa seroguruhlari alohida e'tiborga sazovordir. O'zbekistonda olib borilgan ko'p yillik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, meningokokk infeksiyasi asosan sporadik hollarda uchraydi va ko'p



# URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

hollarda A seroguruhi ustunlik qiladi. Biroq so'nggi yillarda yuqori virulentlikka ega bo'lgan yangi shtammlar paydo bo'lishi, shuningdek antibiotiklarga chidamlilikning oshishi epidemiologik vaziyatni murakkablashtirmoqda [3]. Hozirgi kunda meningokokkning turli seroguruhlarining tarqalishiga xos epidemiologik va geografik xususiyatlarni o'rganish davom etmoqda. M.V. Abramtseva va hammualiflarning [1] ma'lumotlariga ko'ra, A seroguruhi ko'pincha epidemiya avj olishlari bilan tavsiflanadi, B, C va Y serogruhlari esa asosan sporadik kasallanish holatlari bilan namoyon bo'ladi [1].

**Tadqiqod maqsadi.** O'zbekiston Respublikasida 1991–2025 yillar davomida meningokokk infeksiyasi bilan kasallanishning retrospektiv epidemiologik tahlilini o'tkazish, uning dinamikasi, hududiy tarqalishi bo'yicha xususiyatlarini aniqlash

**Tekshiruv usullari va materiallari.** Tadqiqot uchun epidemiologik (retrospektiv), statistik (Fisher usuli) usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot o'tkazish uchun tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekiston respublikasi sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi qo'mitasi meningokokk infeksiyasi bilan kasallanish to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlar olindi

**Olingan natijalar.** O'zbekiston Respublikasida meningokokk infeksiyasi bilan kasallanishning retrospektiv epidemiologik tahlili o'tkazilganda, kasallanishning ko'p yillik dinamikasida 1991–2025 yillar davomida meningokokk infeksiyasi bilan kasallanish ko'rsatkichlari sezilarli o'zgaruvchanlikni namoyon etgan, kasallanish dinamikasida bir necha ko'tarilish davrlari aniqlandi. 1-ko'tarilish sikli 1991–1995 yy. larga to'g'ri kelib, kasallanishning yuqori ko'tarilish davri bo'lib, ushbu davrda kasallanish ko'rsatkichlari nisbatan yuqori bo'lib, 1,6–1,8 oraliqida qayd etilgan. Bu holat kasallik qo'zg'atuvchisini aholi orasida jadal aylanishi, yuqumlilik darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. 1996–2000 yy.larda kasallanishga pasayish tendensiyasi xos bo'lib, 1996 yildan boshlab ko'rsatkichlar izchil kamayib, 2000 yilga kelib 0,4 gacha tushgan. Bu profilaktika chora-tadbirlarining kuchaytirilishi va sanitariya-epidemiologik nazoratning yaxshilanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2001–2005 yillar davomida kasallanish qisman stabilizatsiyalashgan, bu davrda ko'rsatkichlar past darajada saqlanib, ayrim yillarda (2001 y.) qisqa muddatli o'sish kuzatilgan. 2006–2014 yillarda kasallanish intensiv ko'rsatkichlari 0,2 dan 0 gacha kamayib, ayrim yillarda umuman qayd etilmagan. 2019 yil yanvardan dekabrgacha bo'lgan davrda respublikada meningokokk infeksiyasining (MI) 100 dan ortiq holati qayd etilib 100 ming aholiga 0,4 ni tashkil qilgan. Shu davrda kasallanganlarning asosiy qismi Toshkent shahriga to'g'ri kelgan. O'zbekistonda epidemiyalararo davrdagi o'tgan 30 yildan ortiqroq vaqt davomida meningokokk kasalligi bilan kasallanish ko'rsatkichlarining kamayganligi, tibbiyot xodimlarining ushbu infeksiyaga nisbatan ogohliligining pasayishiga olib keldi. Kech tashxis qo'yilishi, kasalxonaga ham kech yotqizilishi ko'pincha o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatilmasligiga sababli oqibatda bemor uchun turli xil asoratlar bilan yakunlanadi. 2020 yil butun dunyo COVID-19 pandemiyasi yuzaga kelganligi munosabati bilan joriy etilgan karantin cheklovlari meningokokk infeksiyasi kasalligining ham epidemik jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatdi. O'rnatilgan qat'iy karantin tadbirlari munosabati bilan aholining juda ko'p qismi asosan uyda bo'ldilar. Aholi sanitariya-gigiena qoidalariga qat'iy amal qila boshladi. Vaximaga berilgan aholi antibiotiklarni tartibsiz qabul qila boshladilar, bu bakteriologik tashxisotga o'z ta'sirini ko'rsatdi, kasallanishni ro'yxatga olish kamaydi. 2024–2025 yillarga kelib Meningokokk kasalligi bilan kasallanish 100 ming axoliga 0,09–0,06ni tashkil etdi, ammo 2026 yil 4 oyida kasallanish keskin o'sishi kuzatildi. (1-rasm). Bu so'nggi yillarda epidemik






# URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

jarayon faollashganligini ko‘rsatadi va alohida epidemiologik tahlilni talab qiladi.



**1-rasm. O‘zbekiston respublikasida meningokok infeksiyasi bilan kasallanish ko‘p yillik dinamikasi (1991-2025 yy.) 100 ming aholiga nisbatan**


O‘zbekiston Respublikasida 1991–2025 yillar davomida meningokokk infeksiyasi bilan kasallanishning hududlar kesimidagi tahlili shuni ko‘rsatadiki, epidemik jarayon mamlakat bo‘ylab notekis tarqalgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, kasallanishning eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelib, 100 ming aholiga nisbatan o‘rtacha 0,74 ni tashkil etgan (2-rasm). Ma‘muriy hududlar kesimida kasallanish darajasining farqlanishi infeksiya tarqalishida shahar infratuzilmasi, aholi zichligi va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, Toshkent shahrida meningokokk infeksiyasi bilan kasallanishning nisbatan yuqori ko‘rsatkichlari ayrim tumanlarda jamlangan bo‘lib, ular orasida Shayxontohur tumani, Uchtepa tumani va Olmazor tumani tumanlari alohida ajralib turadi. Mazkur tumanlarda yuqori ko‘rsatkichlarning qayd etilishi, avvalo, yirik qurilish ob‘ektlarining mavjudligi, mehnat migrantlari va vaqtinchalik ishchi kuchining yuqori konsentratsiyasi, shuningdek, aholi zichligining ortishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu omillar infeksiyaning tez tarqalishi uchun qulay epidemiologik sharoit yaratadi.



# URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740



**2-rasm. O‘zbekiston respublikasida meningokok infeksiyasi bilan kasallanish xududlar bo‘yicha taxlili (1991-2025 yy.) 100 ming aholiga nisbatan**

## **Xulosa:**

1. O‘tkazilgan retrospektiv tahlil natijalariga ko‘ra, meningokok infeksiyasi bilan kasallanishning eng yuqori ko‘rsatkichlari 1991–1995 yillarda qayd etilgan bo‘lib, keyingi yillarda bosqichma-bosqich pasayish va 2006–2014 yillarda juda past darajaga tushishi kuzatilgan. 2019 yilda qisman o‘rish, 2020 yilda esa karantin choralarini ta‘sirida pasayish qayd etilgan. 2024–2025 yillarda kasallanish past darajada saqlangan.

2. Hududlar kesimida kasallanish notekis tarqalgan bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahriga to‘g‘ri kelgan. Shahar ichidagi Shayxontohur tumani, Uchtepa tumani va Olmazor tumani tumanlarida yuqori ko‘rsatkichlar aniqlangan.

3. Umuman, taxlil meningokokk infeksiyasi bilan kasallanishning hududiy notekis tarqalishi va so‘nggi yillarda qayta faollashish ehtimolini ko‘rsatadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Абрамцева М.В., Тарасов А.П., Немировская Т.И. Менингококковая инфекция: современные представления о возбудителе, эпидемиологии, патогенезе и диагностике // Биопрепараты. Профилактика, диагностика, лечение. – 2014. – №3. – С. 4–10. <https://cyberleninka.ru/article/n/meningokokkovaya-infektsiya-sovremennyye-predstavleniya-o-vozbuditеле-epidemiologii-patogeneze-i-dagnostike-soobschenie-1>

2. Даминов Т.А., Туйчиев Л.Н., Таджиева Н.У., Муртазаева З.Б., Курбанов Б.Ж., Курбанова Г.Ш., Магзумов Х.Б. Клинико-эпидемиологические особенности менингококковой инфекции // <https://dx.doi.org/10.18565/epidem.2020.10.1.48-54>

3. Musaev U.Yu., Mustanov A.Yu., Sabirov U.A. Identification of the causes of meningococcal infection in children and improvement of preventive measures // Latin American Journal of Education. 6, 1 (January, 2026)